

ISSN 2181-1792

# FILOLOGIK TADQIQOTLAR

ILMIY  
JURNAL

2024-YIL, OKTABR

# FILOLOGIK TADQIQOTLAR

ILMIY JURNAL №1 (2024-YIL, OKTABR)

## FILOLOGIK TADQIQOTLAR

ilmiy jurnal

## ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

научный журнал

## PHILOLOGICAL RESEARCH

scientific journal

№ 1 (2024-YIL, OKTABR)

Adibning “Alisher Navoiy” romanida tarixiy hodisalarning real badiiy ifodasida aynan Alisher Navoiyning o‘z asarlaridan olingan parchalar ko‘pchilikni tashkil etadi. Bahodir Karim so‘zi bilan aytganda: “Zamonaviy realistik romanlar o‘z to‘qimasiga ko‘ra, yangidan-yangi usullar, tasvir yo‘sinlari bilan boyib borayotgani uchun o‘zbek adabiyotida muhim bir adabiy hodisa bo‘lgan [4.3.] Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romaniga yangilanayotgan realizmning yaxshi namunasi sifatida qarash o‘rinli bo‘ladi” Hazrat Alisher Navoiy asarlari XV asrdan hozirgi kungacha o‘zbek adabiyoti rivoji uchun xizmat qilib kelmoqda. Asrlar davomida uning asarlari taqlid va ilhom manbai bo‘lib kelgan. Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romani esa Navoiy shaxsini yanada chuqur anglashimizda turtki bo‘la oladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Isajon Sulton nasri badiiyati: ilmiy maqolalar, taqriz, adabiy suhbatlar, maktublar/to‘plab nashrga tayyorlovchilar: G.Sattorova, M.Qo‘chqorova. - Toshkent: Turonzamin ziyo, 2017.
2. Isajon Sulton. ”Bilga xoqon” roman, qissalar va hikoyalar. Toshkent: Factor books nashriyoti, 2022.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. -Toshkent: O‘zbekiston, 1999.
4. Karimov B. Hazrat Alisher Navoiyga ehtirom yoxud Insoniyat quyoshi ta’rifida bitilgan roman to‘g‘risida bir-ikki og‘iz so‘z // “Yangi O‘zbekiston”. 2021 yil 10 avgust. №160 (416).
5. Sulton Isajon. Alisher Navoiy. Roman. – Toshkent: Adabiyot, 2021.

## ROMAN POETIKASIGA KIRISH

Pardayeva Zulfiya

Jizzax davlat pedagogika universiteti professori, filologiya fanlari doktori

**Annotatsiya.** *Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat”, “Sabo va Samandar”, “Isyon va Itoat”, “Ota” romanlari o‘ziga xos poetikasi bilan ajralib turadi. Yozuvchining yangi “Yo‘l” romani adib romaniy tafakkuridagi murakkab, ko‘pqatlamli badiiy talqin mahoratidan darak beradi. Yozuvchi badiiy mahorati nafaqat romanda diniy, qomusiy, falsafiy, tarixiy bilimlarning talqin etilganida, balki o‘quvchidan ham muallif qo‘llagan manbalardan xabardor bo‘lishi talab etilganidadir. “Yo‘l” romani murakkab badiiy tizimga asoslangan roman. Romanda realizm, modernizm va postmodernizmning sintezlashgan uslublari muvaffaqiyatli qo‘llanilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *roman, romaniy tafakkur, poetika, sintez, realizm, san‘at, modernizm va postmodernizm, o‘zbek adabiyoti, hikoyalar to‘plami.*

**Аннотация.** *Романы Улугбека Хамдама «Мувозанат», «Сабо и Самандар», «Исён ва Итоат», «Отец» выделяются своей уникальной поэтикой. Новый роман писателя «Дорога» свидетельствует о его мастерстве в сложной и многослойной художественной интерпретации. Художественное мастерство писателя проявляется не только в трактовке религиозных, энциклопедических, философских и исторических знаний в романе, но и в требовании от читателя знания источников, использованных автором. Роман «Дорога» основан на сложной художественной системе. В романе успешно использованы синтезированные стили реализма, модернизма и постмодернизма.*

**Ключевые слова:** *роман, романное мышление, поэтика, синтез, реализм, искусство, модернизм и постмодернизм, узбекская литература, сборник рассказов.*

**Annotation.** *Ulugbek Hamdam's novels "Muvozanat" (Balance), "Sabo va Samandar" (Sabo and Samandar), "Isyon va Itoat" (Rebellion and Obedience), and "Ota" (Father) stand out with their distinctive poetics. The author's new novel "Yo'l" (The Road) showcases his complex, multi-layered artistic interpretation within the realm of novelistic thought. The writer's artistic mastery not only interprets religious, ethical, philosophical, and historical knowledge in the novel but also requires the reader to be aware of the sources utilized by the author. "Yo'l" is based on a complex artistic system. The novel successfully employs a synthesis of realism, modernism, and postmodernism.*

**Keywords:** *novel, novelistic thought, poetics, synthesis, realism, art, modernism and postmodernism, Uzbek literature, collection of stories.*

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida yozuvchi Ulug‘bek Hamdam romanlarining alohida o‘rni bor. “Muvozanat”, “Sabo va Samandar”, “Isyon va Itoat”, “Ota” romanlari o‘ziga xos poetikasi bilan ajralib turadi. Ayniqsa “Isyon va itoat” romani talqin etilgan muammolar ko‘lami, badiiy tasvir, falsafiy mushohada, psixologik kolliziyalar, obrazlar tizimining yozuvchi konseptual g‘oyasiga xizmat qilishi bilan jahon romanchiligi tadrijida o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘ldi, desak adashmaymiz.

“Yoshlik” jurnalining 2015-yil 6-7-sonlarida chop etilgan, 2022-yilda nashr etilgan “Yaxshiyam sen borsan” roman va hikoyalar to‘plamiga kiritilgan “Yo‘l” romani yozuvchi romaniy tafakkuridagi murakkab, ko‘pqatlamli badiiy talqin mahoratidan darak beradi. Biz mutolaa jarayonida amin bo‘lganimiz – yozuvchi badiiy mahoratining nafaqat romanda diniy,

qomusiy, falsafiy, tarixiy bilimlarning talqin etilganida, balki o‘quvchidan ham muallif qo‘llagan manbalardan xabardor bo‘lishi talab etiladi. Ko‘rsatib o‘tish joiz, qo‘llangan manbalarga ishoralar matnda ko‘rsatilmaydi. Bu badiiy mahorat postmodernizmga xos uslubdir.

Talqin jarayonida ko‘p epizodlar qahramon ongida kechishi va u retrospektik syujetda berilishi modernizmga xos jihatlardan ekanligi alohida ta’kidlamochimiz. “Yo‘l” romani ham Temur Po‘latov, Marsel Prust asarlarini o‘qigan kabi “ohista, shoshmay mutolaaga, fikrchan mutolaaga da’vat qiladi kitobxonni” (Xurshid Do‘stmuxammad).

Biz XX – XXI asrlar oralig‘i jahon romanchiligida sintezlashgan uslublar namoyon bo‘lishini kuzatar ekanmiz, bu jarayon o‘zbek romanlarida ham kechishiga amin bo‘ldik. Xurshid Do‘stmuxammadning “Donishmand Sizif”, Nazar Eshonqulning “Go‘ro‘g‘li”, Ulug‘bek Xamdamning “Isyon va itoat” kabi romanlar sintezlashgan roman janriga mansub asarlardir. “Yo‘l” romani ham murakkab badiiy tizimga asoslangan roman.

XX asrning yetuk ispan faylasufi Xose Ortega–i–Gasset modernizmni “xoslar adabiyoti” deb ta’riflagan edi. Bizning fikrimizcha, “Yo‘l” romanini ham oddiy o‘quvchi “xazm” qila olmaydi. Roman tuzilishida har bir abzas mohiyatan bir-biriga bog‘liq, ammo turfa xil manbalarni talqin etuvchi epizodlardan iborat bo‘lib, o‘quvchi ilohiy bilimlardan – Qur’oni karim sura va oyatlaridan, ularning tafsiridan, hadis va rivoyatlardan, “Qisasi ar-Rabg‘uziy: Qisasi Odam safiy alayhissalom — Odam Ato va Momo Havo qissasi”dan, Mavlono Rumi, Alisher Navoiy, Boboraxim Mashrab badiiy-estetik qarashlaridan, badiiy ijodidan xabardor bo‘lishi lozim. Bir so‘z bilan aytganda Orteganing ta’rifi “xoslar adabiyotini” “Yo‘l” romaniga nisbatan qo‘llasak bo‘ladi. Ulug‘bek Xamdamning “Yo‘l” romaniga so‘z boshi yozgan adabiyotshunos S. Kamilova “Moderncha matn yaratishga bo‘lgan yorqin ishtiyoqni «Yolg‘izlik» qissasi va “Yo‘l” romanida ko‘ramiz. Obrazlarning aniq berilishi, xarakterlarni dinamikada tasvirlash, detallarni alohida ma’no (rol) yuklash va shu kabi ko‘plab usullar U. Xamdamning realistik matn yaratish arsenaliga xosdir», — deya ta’rif beradi.

Ko‘rsatib o‘tish joiz, Ulug‘bek Xamdamning falsafiy romanlari ruknida alohida ahamiyatga molik “Yo‘l” romani ham o‘ziga xos badiiy xususiyatlarni namoyon etadi. Romanda muvaffaqiyatli qo‘llanilgan realizm, modernizm va postmodernizmning sintezlashgan uslublari romanda Qur’oni karim motivlarining reprezentatsiyasi uchun xizmat qilganligidadir. Romanda “ong oqimi” usullaridan keng foydalanish badiiy psixologizm imkoniyatlarini ham boyitgan. “Yo‘l” romani poetikasiga e’tiborimizni qaratsak.

Romanning mohiyati unda epigraf sifatida berilgan Qur’oni karimning “Nahl” surasi 15- va 16-oyatlari bilan ochib beriladi:

“U zot Yer sizlarni tebratmasligi uchun unda tog‘larni barpo qildi, daryolarni va (ko‘zlagan manzilingizga borishda) adashmasliklaringiz uchun yo‘llarni paydo qildi. Va (u yo‘llarga) belgilar (qilib qo‘ydi. Kechalarda kishilar) yulduzlar bilan yo‘l topurlar”.

Mavlono Rumiyan keltirilgan dohiyona fikr: “Men bir ojiz tomchiman, ammo yuragimda ummon sog‘inchi yashaydi” yozuvchining konseptual g‘oyasini badiiy inkishof etadi.

Roman mutolaasi mushohadaga chorlaydi. Retrospektiv o‘ylar assotsiativ tahlillar bilan qorishib ketadi. Ba’zan qaysi tush, qaysi xush ekanligini anglay olmasan. Xayolingga “Yosun surasi” keladi va mo‘jizani anglaysan. Musavvir ham chiza olmaydigan, daho yarata olmaydigan olamni, va hammasidan mukammali va mukambari Inson yaralgan kunidan bugungi takomiligacha bo‘lgan YO‘L yozuvchi tomonidan badiiy inkishof etilar ekan, o‘zining yaralishi, milliard yillarni qamrab olgan taraqqiyoti goh real hayot manzaralarida, goh tush orqali, goh



taxayyul puchmoqlarida fikr yuritgan, mulohaza qilgan, mushohada qilgan, muloqotga kirishgan inson – yo‘lovchi o‘z yo‘lini izlaydi. “Ming bir kecha” shakli shamoyilini eslatuvchi rivoyatlar o‘zicha mustaqilday, bir qarasangiz bir-birini to‘ldirganday... Inson butun umrini isloh qilganday ko‘rinadi, aslida esa Buyuk Yaratgan kundan boshlab insonlik yo‘li ramz sifatida namoyon bo‘ladi.

Yosin surasining mo‘jizakor so‘zlari olam yaralishini inson suratida, siyratida, ko‘zlarida, ruhida tasvir etadi. Buyuk Yaratganning mo‘jizalariga lol qolasan: Ufqlarga tutashib ketgan tog‘ tizmalari, cho‘qqilarning o‘tkir tig‘lariga ko‘ksini bosgan bulutlar, marmar suvlar bag‘ridagi turfa xil olam – bari odam yaralishidan oldin odam uchun yaraldi.

Xuddi “Munojot”ning sehrli munglari inson ruhiyatini asrlar bilan bog‘lagandek, I. Kuprinning Jeltkovi bitgan xatdagidek “Betxovenning №6 raqamli Sonatasi”ning sehrli sadolari Vera Sheynga muhabbatni tanitgandek roman davomida bir kuy, bir navo, bir sehrga oshno bo‘lasan.

“Yo‘l” romanida amalga oshgan badiiy talqin odamizot bo‘lib yaralishning mohiyati, falsafasi edi. ODAM yaralishida eng go‘zal tuyg‘ular, bir navo sifatidagi ovoz bo‘lib inson botiniga uning burchi, odamiylik ma‘suliyati singdirildi va u butun insoniyatga berildi.

Roman shaklan bir-birini to‘ldiruvchi rivoyatlar, tushlar va hakoza lardan iborat. Har talqin asosida qomusiy, islomiy, falsafiy bilimlar yotadi. “Tushdan oldingi voqea” da odamizot yaralishidan oldin keladigan “sirli, sehrli, shivirlagan ovoz” uzun yo‘l kabi deb ta‘riflanadi. Bu lavhani romanga kirish so‘z sifatida qabul qilish mumkin.

Ne-ne zamonlar oldin yaralgan odamizot qissasi tush shaklida beriladi.

Qomusiy olim A. Abduraxmonov “Mashhur geofizik olimlar D.Raup va Dj.Valentaynlarning ta‘kidlashlaricha, Yerda xayot o‘n martacha tugab, yangitdan boshlangan — «qayta tug‘ilgan” va ularning har biri turli bioximik asoslarda kechgan. Hayot Yerda deyarli 3 milliard 620 million yil muqaddam vujudga kelgan», — deb ma‘lumot beradi.

“Qisasi ar-Rabg‘uziy: Qisasi Odam safiy alayhissalom — Odam Ato va Momo Havo qissasi”da “Yer yuzining birinchi odami, sultoni, payg‘ambari tuproqdan yaratildi, qudrat ila tiriltirdi, ulug‘ ko‘kka ko‘tarildi, jannat ichra kiritildi, Havodek juft berildi. Iblis vasvasasiga ilindi, yorug‘ jannatdan ayrildi, qorong‘u dunyoga quvildi, Uch yuz yil Allohga hamdu sanolar aytib, tavbalar qildi. Iltijolari qabul etildi”, — deya ma‘lumot beradi. “Saodatga eltuvchi bilim”da ham Olam va Odam Buyuk Alloh tomonidan bir necha bor yaralganini, “Yo‘l” romanida ham bu qayta-qayta yaralish qahramon tilidan ochib berilganiga amin bo‘lamiz.

“Ilk tush” deb nomlangan rivoyat shunday boshlanadi: “Shunday qilib, hammasi, ichimiz va tashimizdagi «hammasi” avvalboshda bir nuqtada jamlangan emish. Ammo bu shunday nuqta emishki, hozirgi ona zaminimizdan ming va million nimasi, milliard martalab katta ekan. Ana o‘sha katta, ammo bitta nuqta kunlardan bir kun (aslida, u vaqtlarda kun va tun degan tushunchaning o‘zi bo‘lmaganmish) ich-ichidan qattiq portlabdi... Xullas, shu tarzda siz bilan biz ko‘rib, sezib, bilib turgan olam paydo bo‘lganmish». (10-12).

Tush bayonida shu “buyuk portlash” natijasida koinot, ya‘ni osmon va uning osti, uning ichidagi turli sayyoralar, jamodod, nabotot, hayvonot va odamizod paydo bo‘libdi. Axir “Bo‘l!” deb amr etilmaganmidi azalda!.. (11)

Uyqudagi odamizot ongi tiyrak. U tushida Alloh tomonidan “Bo‘l!” deb amr qilinganini keltiryapti:

Ma'lumki, Qur'oni karimning bir necha o'rinlarida, xususan "Baqara" surasining 117-oyati, "Oli imron" surasining 47, 57-oyati, "An'om" surasining 73-oyati, "Nahl" surasining 40-oyati, "Maryam" surasining 35-oyatlarida "فَيَكُونُ كُنْ" lafzi keladi. Bu lafzlarning ma'nosi nima, bu borada ahli sunna val jamoa ulamolari orasida qanday ixtiloflar bor?

Bu lafzning lug'aviy ma'nosini tushunish uchun birgina, "Yasin" surasi 82-oyatini oladigan bo'lsak, unda Alloh taolo aytadi;

فَيَكُونُ كُنْ لَهُ يَقُولُ أَنْ شَيْئًا أَرَادَ إِذَا أَمْرُهُ إِنَّمَا

Ya'ni; "Qachon biror narsani iroda qilsa, Uning ishi «Bo'l» demoqlikdir, xolos. Bas, u narsa bo'lur»... Demak, xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Ash'ariylar nazdida narsalarni yaratilishi va vujudga kelishi Alloh taoloning "كُنْ" (bo'l) degan amriga bog'liq. Moturidiylarning nazdida esa narsalarning vujudga kelishi bor bo'lishi Alloh taoloning "ijod"i va "taqvini"ga bog'liq, Alloh taoloning unga "كُنْ" (bo'l) deyishi esa Alloh taoloning azamati, ulug'ligi va qudratini izhor qilish uchundir».

Qahramonni oddiygina qilib ODAM deb ataymiz. Odamning tushida ayon bo'lgan ilohiylik – o'zining, osmonning va olamning yaralishidir. Odam ko'radigan barcha tushlar ilohiy va ularda sodir bo'layotgan g'aroyibotlar Qur'oni karimda bayon etilgan Alloh karami bilan nozil bo'lgandir. Tushdan tushgacha kechadigan vaqt – cheksiz, chegarasiz; tasvirlanayotgan makonlar – had-hududsiz. Sodir bo'layotgan g'aroyibotlar – Allohdan, sir-sinoatlar – Allohdan.

Odam timsolida qahraman Vaqt va Makonda hozir, yozuvchi tush va mavjudlik o'rtasida necha milleniumlar oldin sodir bo'lgan mo'jizalarga guvoh: "Ko'rganim tush ekanligini vaqtlar o'tib, qayta-qayta tush ko'ravergach, anglay boshladim. Birinchi safar esa men tushimni hayotimning davomi deb o'ylabman. Ehtimol, qachonlardir yana shunday o'ylashga moyil bo'larman, lekin hozir uni tush, ya'ni naqd hayotimning bir soyasi deb bildim. Chunki tushimda menga ayon bo'lgan voqe'lik o'ngimdagiga ko'p-da o'xshamas edi" (11)

Qahraman suylab beradigan parchalanishlar – Alloh tomonidan yaratilayotgan OLAM ekanligi anglashiladi: "Xullas, men saman ot yanglig' minib olgan parcha uzoq uchib, nihoyat, o'zidan ming, balki million karra katta boshqa bir parchaga kelib urildi. Bu ham yana bir portlashni hosil qildi. Olam go'yo chaqmoqlarga to'lib ketdi, har tomonga son-sanoqsiz uchqunlar bilan birga men ismini sira bilmaydigan turfa xil changu to'zon ko'tarildi. Natijada katta parchaning bag'ri qaynay boshladi. U shunchalar uzoq qaynadiki, siz bilan bizning hozirgi tushunchamizga ko'ra oradan milliard yillar o'tdi. Nihoyat, u sovidi. Oqibatda biz borib tushgan joyda suyuqlik, ya'ni suv paydo bo'ldi, suv!.." (13-14)

Quyidagi Qur'on oyatlarida Muhammad (alayhissalom) davriga xos xato ma'lumotlarning birontasini uchratmaymiz: "Biz osmondan barakatli suv — yomg'ir yog'dirib, uning yordamida bog'-rog'larni va o'rib olinuvchi don-dunlarni hamda tizilgan (mevali) novdalari bo'lgan baland xurmolarni undirib-o'stirdik. Bandalarga rizq bo'lsin uchun (mana shunday qildik). Yana u (suv) yordamida o'lik shaharni – yerni tiriltirdik (O'liklarning o'z qabrlaridan qayta tirilib) chiqishlari ham mana shunday bo'lur" (Qof surasi, 9-11-oyatlar) "Va Biz osmondan (aniq) o'lchov bilan suv (yomg'ir-qor) yog'dirib, uni yerga joylab qo'ydik. Shak-shubhasiz, Biz uni ketkazishga ham qodirdirmiz. So'ng Biz sizlar uchun u (suv) yordamida xurmo va uzum bog'larini paydo qildik. Sizlar uchun u (bog'larda) yana ko'p mevalar bo'lur, sizlar ulardan yeysizlar" ("Mo'minun" surasi, 18-19-oyatlar). "Biz shamollarni (bulutlarga) homilador bo'lgan hollarida yubordik, osmondan suv (yomg'ir) yog'dirib, sizlarni u bilan sug'ordik. Uni sizlar to'plab oluvchi emassiz (balki daryo va ko'llar yaratib, u suvni Biz sizlar uchun to'plab berurmiz)" (Hijr surasi, 22-oyat)/

Romandagi “Uchinchi tush”ning kechishida qahramonning otasi zohir bo‘ladi. Chanqagan ota va o‘g‘ilning ko‘ziga sarob suvi chayqalib turgan hovuz bo‘lib ko‘rinibdi. Rosayam charchasalar ham ota-o‘g‘il to‘xtamabdilar. Ming yilliklar tarixi qahramonning ongida oldinda cheksiz ummon borligiga ishora beryapti. Vaqt va makon kechishi ajdodlarni avlodlarga bog‘layapti. Olamda yuz bergan hodisalar qahramon-roviiy tilidan hikoya qilinarkan, ular qachondir bo‘lganini, ularni hikoya qilish uchun qahramon bir vosita ekanligini anglaymiz. Sahifama sahifa mutolaa bizni roman mohiyatiga yaqinlashtiradi. Allohning eng buyuk mo‘jizasi – odamizotning yaralishi va bugungi kundagi takomiligacha bosib o‘tgan yo‘li, go‘yo-ki inson ongining mudrab yotgan puchmoqlaridan bo‘y ko‘rsatadi.

“Uchinchi tush”dagi epizod inson tafakkurining shakllanishi bilan bog‘liq: “Ammo shunisi qiziqki, men ularga ism bera boshlabman. Mana, misol uchun, to‘lqindan bir parcha ajralib chiqibdiyu allaqanday maxluq qiyofasiga kiribdi va men unga baliq deb nom beribman. Dam o‘tmay esa birdaniga baliqlar ko‘payib ketibdi, ularning ayrimlari hatto sekin-asta shaklu shamoyilini o‘zgartirib, turli-tuman o‘zga qiyofalarga aylanishibdi. Men baland-baland to‘lqinlar quchog‘ida sudraluvchi, o‘rmalovchi, chopuvchi, yuruvchi, nihoyat, uchuvchi maxluqlarni idrokim ila ilg‘ay boshlabman va ularning har biriga ism qo‘yibman: dinazavr, ixtiozavr, mamont, timsoh, ilon, echkiemar, o‘rgimchak, ninachi, fil, maymun, kaptar... Ularning orasida esimda yorqin saqlanib qolgani – otlar bo‘libdi. Oppoq otlar! To‘lqinning og‘zidagi ko‘pikka o‘xshagan oydin otlar!” [15-16]

Yozuvchi talqin etgan odamizod idroki Alloh tomonidan berilgan tafakkur edi: “Yaratgan egam Odam Atoga «Asmo ilm” ni o‘rgata berdi. U barcha narsalarni farishtalarga ko‘rsatdi, ularning otini so‘radi. Farishtalar ojiz qoldilar. So‘ngra Odam Atoga ularning nomlarini aytishni buyurdi. Barcha narsalarning nomini aytdi. Yaratgandan xitob keldi: “Ey, farishtalar, men bilgan narsani siz bilmaysiz deb aytmadimmi?! Endi sizga, ma‘lum bo‘ldiki, Odam olim, siz-obidsiz. Mening nazdimda ming obiddan bir olim fozilroqdir. Qayerda olim bo‘lsa, unga obid yordamga kelsin. Ul maxdum bo‘lsin, sizlar xodim bo‘ling, ul masjid bo‘lsin, siz sojid bo‘ling Odamga sajda qiling”

E’tiborimizni adabiyotshunos, faylasuf, tasavvuf ilmining nuqtadonlaridan Najmiddin Komilovning Alisher Navoiy ilohiy tafakkurining badiiy tafakkurda inkishof etilishiga qaratsak: “Ilohiy g‘oyalari, timsollar uning uchun inson hamisha intiladigan ideal olam bo‘lsa, dunyo shu ideal olamning ko‘zguisi, ibrat va saboq maydoni. Zero, insonda koinotning, ilohiy olamning hikmatlari, mohiyati aks etgan. «Neki olami kubroda bor – olami sug‘roda bor”, deydi Navoiy. Olami kubro — katta olam, ya‘ni koinot, borliq. Olami sug‘ro – kichik olam, ya‘ni inson. Bunday qarash aslida Odam Atoning yaratilishi haqidagi rivoyatga borib taqaladi. Odam Ato, Qur‘oni karimda aytilishicha, tuproqdan yaratilib, keyin unga Alloh o‘z ruhini yuborib, jon ato etadi. Demak, inson modda va ruh yoki tabiat va ilohdan vujudga kelgan. Shu bois inson tiynatining o‘zida majoz va haqiqat, ilohiylik va dunyoviylik mujassam. Bu olam yagonaligi haqidagi vahdat ul-vujud ta’limotiga muvofiqdir. Ya‘ni: O‘z vujudungg‘a tafakkur aylagil, Har ne istarsan, o‘zungdin istagil»

“Yo‘l” romanidagi inson maqomini tahlil etar ekanmiz, qahramon intilgan soliklik hikmatini Navoiyda topgandek bo‘lamiz. Nega-ki, Navoiy e’tiqodining javhari — tasavvuf g‘oyalari va inson qalbi, shohu gado hikmati, insonning ma’naviy kamoloti, Ko‘ngul va g‘ayb olami, axloqiy poklanish va Iloh ishqiri xususida fikr yuritadi, ardoqli, ajib tuyg‘ularning abadiyati va bugungi hayotimizga ta’siri haqida so‘zlaydi.



Roman qahramoni hayotining ibtidosi – odamizotning yaralishi, intihosi esa ko‘rinmaydi. Uning yo‘li soliqlik yo‘li. Roman poetikasi talqini jarayonida yozuvchining badiiy konsepsiyasi bo‘y ko‘rsata boradi. Yozuvchi odamni yaratishdan maqsad nima edi degan savolga javob izlaydi... Javobni biz Navoiydan topamiz: “Navoiy uchun Parvardigor — olam yaratuvchisi, olamni yaratishdan maqsad esa — odamni — maxluqot gultojini yaratish. Shoir mana shuni anglashni imonning asosi deb biladi va islomga buyuk bir ma’rifat deb qaraydi, ya’ni dunyoni, Ilohni va o‘zlikni bilish ma’rifati”.

Roman qahramoni ham yo‘lda. Yozuvchi qo‘llagan dialog – qahramonning o‘ziga berayotgan savoli va javobi yo‘lning asl mohiyatini anglashga yordam beradi.

Romanni mutolaa qilar ekanmiz, u Qur’oni karimning ilohiy sehri talqiniga bag‘ishlanganini anglaymiz, bu talqinlar Jaloliddin Rumiyning tasaffuviy ilmi bilan yo‘g‘rilgan. Mavlono o‘zi bitgandek “Ezgulikdan bir qal’a barpo aylangkim, mahkamlikda anga hech narsa teng bo‘lolmas”; «Sado keldi. Sado!.. Men unga beixtiyor quloq solib qoldim, beixtiyor...

“Qur’onning siri «Fotiha» surasida, “Fotiha”ning siri “Bismillo”da, “Bismillo”ning siri “Be” harfida, “Be” harfining siri ostidagi nuqtasida va men – inson o‘sha nuqtamen...» – der edi sado. [18]

Fotiha surasining fazilatlarini bayon qilingan tafsir manbalarida uning Qur’oni karim ma’nolarini o‘zida mujassam qilgan va ulug‘ fazilatlariga ega sura sifatida yoritilgan. Hasan Basriy bu sura haqida: “Alloh taolo avvalgi kitoblardagi barcha ilmlarni Qur’onga jamladi. So‘ngra, Qur’onni ham mufassal holda jamlab, uni Fotiha surasiga kiritdi. Kim Fotiha surasining tafsirini bilsa, Qur’onning nozil qilingan barcha ma’nolarini tushunibdi”, degan.

Yozuvchining mahorati shundaki, odamizot yaralishi ibtidosidan bugunigacha ramziy berilishi Qur’oni karimga nisbatan berilgan bo‘lsa, bosh qahramon obrazi – odamizotning soliklik yo‘li Mavlono Jaloliddin Rumiyning tariqat yo‘li orqali badiiy talqin etiladi. Odamizotga Alloh tomonidan buyurilgan sunnatlar Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Iymon” kitobida batafsil yoritilgan. Bundan kelib chiqadigan ma’no shuki, “to‘rtta holat (shariat, tariqat, ma’rifat, haqiqat) insonning Allohni anglash yo‘lidagi kamolot bosqichlaridir. Ma’rifatli odam shu ma’rifatini aniq bilib-anglagan onda eng barkamol, komil va mukammal insondir! Yanada soddaroq tushuntiradigan bo‘lsak, bular shar’iy amallarni ixlos va xolis bajarishdagi darajalar, amal qilish jarayonida insonni qamrab oladigan ma’naviy his-tuyg‘ular, ruhiy tarbiyalar darajasi miqdoridir”.

Ushbu 1-maqolani “Ulug‘bek Hamdamning «Yo‘l» romani: talqin mahorati va tahlil san’ati. Roman poetikasiga kirish» deb nomladik. Roman janriga neorealizm badiiy xususiyatlarini o‘z ichiga olgan falsafiy tamoyildagi intellektual asar deb aniqlik kiritgan bo‘lardik. Asar xajman kichik bo‘lsa-da janr talablariga javob beradi, shu bilan birga tahlilni imkoniyati cheklangan bitta maqolada bayon etish mushkul. “Yo‘l” o‘z jozibasi bilan ko‘pchilikni maftun etishi aniq. Biz o‘ylaymizki, har bir adabiyotshunos “Yo‘l” romani matni ustidagi tahlilni germeneytik metod asosida olib borgan bo‘lardik. Shu bilan birga, immanent tahlil matn va tagmatn imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Qiyosiy-tipologik tahlil metodlari yordamida asl matn va badiiy matni chog‘ishtirishda imkoniyatlar kengayadi.

maqolani Xurshid Do‘stmuhammadning “Kitobni anglab, tushunib mutolaa qilish lozim” degan ta’kidi bilan tugatishni ma’qul ko‘rdik.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduraxmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. I-II- kitob. To'ldirilgan beshinchi nashri. Toshkent, "Movarounnahr", 2005.
2. Komilov N. Xizr chashmasi — T.: "Ma'naviyat", 2005.
3. Qur'oni karim. Fotiha surasining tafsiri va fazilatleri. <http://old.muslim.uz/index.php/rukn/quran/item/4064>.
4. Qisasi ar-Rabg'uziy: Qisasi Odam safiy alayhissalom — Odam Ato va Momo Havo qissasi // <https://gujum.uz/mutolaa/qisasi-ar-rabguziy-qisasi-odam-safiy-alayhissalom-odam-ato-va-momo-havo-qissasi/>.
5. Rahimov Ne'matulloh. Qur'oni karimda (كُن "Kun") lafzi borasidagi ayrim ixtiloflar. <https://oliymahad.uz/10881>.
6. Tariqatning haqiqatini bilasizmi? <http://old.muslim.uz/index.php/ar/maqolalar/item/23901-tari-atning-a-i-atini-bilasizmi>.
7. Xamdani U. Yo'l / Yaxshiyam sen borsan. Toshkent, Akademnashr. 2023.
8. <https://gujum.uz/mutolaa/qisasi-ar-rabguziy-qisasi-odam-safiy-alayhissalom-odam-ato-va-momo-havo-qissasi/>.

## MUNDARIJA – СОДЕРЖАНИЕ – CONTENTS

### MUMTOZ ADABIYOT TALQINLARI

<b>Bo‘riyev Jaloliddin Aliqulovich.</b> Millat, qadriyat va davlat an‘analari ming yillik jahon adabiyoti durdonasida.....	3
<b>Murtazoyev Bobonazar Xurramovich.</b> Munjik Termiziy: hayot va ijod yo‘liga chizgilar.....	7
<b>Jo‘rayev Jamoliddin Aminjonovich.</b> “Gulshan ul-asror” hikoyatlarida Mahmud G‘aznaviy va Amir Temur obrazlari talqini.....	15
<b>Qorayev Sherxon Po‘latxonovich.</b> Ashtarxoniyalar sultoni subhonqulixon ilmiy-ijodiy faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari.....	21
<b>Eshonkulova Surayyo Isomiddinova.</b> Obrazlarda hayotiy talqin va badiiylik.....	28
<b>Shodmonov Nafas, Qorayev Sherxon.</b> Xorazmlik hukmdor shoirlar sulolasi.....	33
<b>Nuriddin Shahobiddin.</b> Komil Xorazmiy devonining janriy tarkibi to‘g‘risida.....	47

### NAVOIY IJODIYOTI

<b>Rajabova Marifat Bakoeva.</b> Alisher Navoiy ijodida yig‘i–yo‘qlov stilizatsiyasi.....	53
<b>Bekova Nazora, Hayot Latipov, Zarina Sayliyeva.</b> “Gulshani roz” hamda “Lison ut-tayr” asarlarida so‘fiylik va irfon talqini.....	56
<b>Hamroyeva Orzigul Jalolovna.</b> Shoir badiiy maqsadining qofiyada aks etishi.....	70

### ZAMONAVIY ADABIYOTGA OID TADQIQOTLAR

<b>Axmedova Shoira Nematovna.</b> Sharof Rashidov – tanqidchi sifatida.....	76
<b>Murodov G‘ayrat Nekovich, Saidova Rayhonoy Abdug‘aniyevna.</b> Romanda aktrativ diskursning o‘rni.....	81
<b>Soatova Nodira Isomitdinovna.</b> Badiiyatda hayotiylik, ijodiylik va talqin masalasi.....	86
<b>Turoпова Parizod Shavkat qizi.</b> Milliy qadriyatlar tasvirida adib uslubining o‘ziga xosligi.....	96
<b>Davronova Shohsanam G‘aybulloyevna.</b> Isajon Sultonning “Qo‘riqchi” hikoyasida tabiat tasviri.....	102
<b>Xolmuratova Moxira Egamberganovna.</b> Isajon Sultonning tarixiy romanlarida poetik struktura va badiiy to‘qima uyg‘unligi.....	106
<b>Pardayeva Zulfiya.</b> Ulug‘bek Hamdamning “Yo‘l” romani: talqin mahorati va tahlil san‘ati. Roman poetikasiga kirish.....	110
<b>Elmonova Malikabonu.</b> Zulfiya Qurolboy qizi hukoyasida yolg‘izlik motivi.....	117

### FOLKLORSHUNOSLIK

<b>Nasirov Azimiddin Normamatovich.</b> Badiiy asarda tush ifodasi: xarakter va ruhiyat birligi.....	120
<b>Ro‘zmetova Sohiba.</b> Xalq og‘zaki ijodida ajdodlar kulti bilan aloqador tug‘ilish.....	125